

**MUSICAL LISTENING COMPETENCE AS A COMPONENT OF MUSIC
PEDAGOGICAL EDUCATION: STUDENTS' COMPETENCIES AND
RESPONSIBILITIES**

Avlaqulov Dilovor Xayitboboyevich

Senior Associate Professor (Acting) of the
Department of Preschool Education
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
ORCID: 0009-0005-6285-0056
E-mail: dilovora@gmail.com
Tel: (+998) 91-577-19-87

Abstract

This article examines the content of music listening competence, which is considered an important component of the music pedagogical education process, as well as the mechanisms of its development in students and the competencies associated with it. Music listening competence contributes to the development of future music teachers' artistic and aesthetic thinking, enhances their ability to analyze and evaluate musical works, and expands the opportunities for their effective use in pedagogical practice. The article also highlights students' professional competencies in the perception, analysis, and aesthetic evaluation of music.

Keywords: music pedagogy, music listening, competence, authority, musical perception, aesthetic education, music education, student.

**MUSIQIY PEDAGOGIK TA'LIMNING TARKIBIY QISMI JARAYONI MUSIQA
TINGLASH KOMPETENSIYASIDA TALABALARNING VAKOLATLARI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqiy pedagogik ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblangan musiqa tinglash kompetensiyasining mazmuni, uning talabalarda shakllanish mexanizmlari hamda ushbu kompetensiya doirasidagi vakolatlar tahlil qilinadi. Musiqa tinglash kompetensiyasi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, musiqiy asarlarni tahlil qilish, baholash va ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, maqolada talabalarning musiqani idrok etish, tahlil qilish va estetik baholash bo'yicha kasbiy vakolatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy pedagogika, musiqa tinglash, kompetensiya, vakolat, musiqiy idrok, estetik tarbiya, musiqa ta'limi, talaba.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqiy pedagogik ta'limda ham talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalari va kasbiy vakolatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, musiqa tinglash kompetensiyasi bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri sanaladi.

Musiqa tinglash jarayoni nafaqat musiqiy asarni eshitish, balki uni ongli ravishda idrok etish, badiiy mazmunini tushunish, ifoda vositalarini tahlil qilish va estetik baholashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli musiqa tinglash kompetensiyasi talabalarning kasbiy tayyorgarligida alohida o'rin egallaydi. Musiqa tinglash kompetensiyasining pedagogik mohiyati. hhMusiqa tinglash kompetensiyasi talabani turli janr va uslubdagi musiqiy asarlarni ongli ravishda qabul qilishi, ularning mazmun-mohiyatini tushunishi, musiqiy til elementlarini farqlashi hamda asar haqida mustaqil fikr yuritishini ifodalaydi.

Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- motivatsion komponent;
- kognitiv komponent;
- amaliy-faoliyat komponenti;
- refleksiv-baholash komponenti.

Motivatsion komponent talabani musiqaga qiziqishi va estetik ehtiyojlarini shakllantirsa, kognitiv komponent musiqiy bilimlar tizimini egallashni ta'minlaydi. Amaliy-faoliyat komponenti musiqiy asarlarni tahlil qilish va ulardan pedagogik faoliyatda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Refleksiv-baholash komponenti esa musiqiy hodisalarga mustaqil estetik baho berish imkonini yaratadi.

Musiqa tinglash kompetensiyasida talabalarning vakolatlari

Musiqiy pedagogik ta'lim jarayonida musiqa tinglash kompetensiyasini shakllantirish orqali talabalarda quyidagi vakolatlar rivojlanadi:

Musiqiy idrok etish vakolati

Talaba musiqiy asarning obrazli mazmunini tushunadi, uning emotsional ta'sirini his qiladi hamda musiqaning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglay oladi. Ushbu vakolat musiqiy tafakkur va estetik didning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Musiqiy idrok etish vakolati musiqa tinglash kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, talabani musiqiy asarni ongli ravishda qabul qilish, uning badiiy-estetik mazmunini anglash, emotsional-ta'sirchan jihatlarini his etish hamda musiqiy obrazlarni tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur vakolat musiqiy faoliyatning barcha turlari uchun tayanch vazifasini bajaradi, chunki har qanday musiqiy bilim, ko'nikma va malaka avvalo asarni to'g'ri idrok etish orqali shakllanadi.

Pedagogika va musiqa psixologiyasi nuqtai nazaridan musiqiy idrok etish murakkab intellektual-emotsional jarayon bo'lib, unda eshitish sezgilari, musiqiy xotira, tasavvur, tafakkur va hissiy kechinmalar o'zaro integratsiyalashadi. Talaba musiqa tinglash jarayonida nafaqat tovushlarni eshitadi, balki ularning o'zaro bog'liqligi, rivojlanish dinamikasi, intonatsion xususiyatlari va badiiy mazmunini ham anglaydi. Natijada musiqiy asarning g'oyasi, muallifning estetik qarashlari hamda davr ruhini tushunish imkoniyati yuzaga keladi.

Musiqiy idrok etish vakolatining rivojlanganlik darajasi talabani musiqiy asardagi ritm, metr, temp, dinamika, lad-tonallik, registr, tembr va shakl kabi ifoda vositalarini farqlay olishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, talaba musiqiy asarning emotsional kayfiyatini aniqlash, musiqiy obrazlarning rivojlanishini kuzatish va ular asosida mustaqil estetik xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa bo'lajak musiqa pedagogining musiqiy tafakkuri va badiiy didini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Musiqiy pedagogik ta'lim jarayonida ushbu vakolatni rivojlantirish uchun faol tinglash, musiqiy kuzatish, obrazli tahlil, taqqoslash va refleksiv baholash metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, turli janr va uslubdagi asarlarni tinglash orqali talabalar milliy va jahon musiqa madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini anglash, musiqiy hodisalarga tanqidiy va ijodiy yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, musiqiy idrok etish vakolati talabning musiqiy asarni hissiy va intellektual jihatdan chuqur anglashini ta'minlovchi, uning estetik madaniyati, musiqiy tafakkuri hamda kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi muhim kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur vakolatning yuqori darajada shakllanishi bo'lajak musiqa o'qituvchisining ta'lim jarayonida musiqiy materiallarni mazmunan to'g'ri talqin etishi va o'quvchilarda musiqiy madaniyatni samarali rivojlantira olishini ta'minlaydi.

Tahliliy vakolat

Talaba musiqiy asarning shakli, janri, uslubi, ritmi, lad-tonalligi, dinamikasi va boshqa ifoda vositalarini tahlil qila oladi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatida asarlarni o'quvchilarga tushuntirish imkonini beradi. Tahliliy vakolat musiqa tinglash kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabning musiqiy asarni ilmiy-nazariy va badiiy-estetik jihatdan tahlil qilish, uning tuzilishi hamda ifoda vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash qobiliyatini tavsiflaydi. Ushbu vakolat bo'lajak musiqa pedagogining kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki musiqiy asarning mazmuni va shaklini chuqur tahlil qila olgan mutaxassisgina o'quvchilarga musiqiy bilimlarni samarali yetkazib bera oladi.

Tahliliy vakolatning mazmuni talabning musiqiy asarning janri, shakli, uslubi, kompozitsion tuzilishi, intonatsion rivojlanishi, ritmik va melodik xususiyatlarini aniqlashi hamda ularning badiiy g'oya ifodasidagi o'rnini tushuntira olishida namoyon bo'ladi. Bunda talaba musiqiy asarni yaxlit tizim sifatida ko'rib, uning alohida elementlari va umumiy mazmuni o'rtasidagi munosabatlarni anglaydi.

Musiqiy tahlil jarayonida talabalar asarning lad-tonallik tizimi, ritmik tuzilishi, dinamika o'zgarishlari, tembr bo'yoqlari, faktura va shakl xususiyatlarini o'rganadilar. Shu bilan birga, ular musiqiy obrazlarning rivojlanishi, kulminatsion nuqtalar va dramaturgik qurilmani aniqlash orqali asarning badiiy mazmunini chuqurroq tushunishga erishadilar. Bu esa musiqani oddiy tinglashdan ongli va ilmiy asoslangan idrok etish bosqichiga olib chiqadi. Tahliliy vakolatning rivojlanishi talabalarda tanqidiy fikrlash, musiqiy tafakkur va ilmiy yondashuvni shakllantiradi. Talaba turli davrlar, milliy maktablar va kompozitorlar ijodiga mansub asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning uslubiy xususiyatlarini ajrata oladi. Natijada u musiqiy hodisalarga mustaqil munosabat bildirish va asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Musiqiy pedagogik ta'lim amaliyotida tahliliy vakolatni shakllantirish uchun musiqiy-tahliliy suhbatlar, notali tahlil, qiyosiy tahlil, muammoli topshiriqlar, ijodiy loyihalar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar talabalarning musiqiy asarlarni chuqur o'rganishiga, nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalashiga xizmat qiladi.

Estetik baholash vakolati

Estetik baholash vakolati musiqa tinglash kompetensiyasining muhim tarkibiy elementi bo'lib, talabning musiqiy asarlarning badiiy-estetik qimmatini anglash, ularni muayyan mezonlar asosida baholash hamda musiqiy madaniyatning turli namunalari o'rtasidagi farqlarni aniqlash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu vakolat bo'lajak musiqa pedagogining estetik didi, san'atga bo'lgan ongli munosabati va kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Estetik baholash jarayoni musiqiy asarni oddiy hissiy qabul qilish bilan cheklanmay, uning mazmuni, badiiy g'oyasi, ifoda vositalari va tarbiyaviy ahamiyatini kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi. Talaba musiqa tinglash davomida asarning estetik ta'sir kuchini, obrazlar tizimini, kompozitorning ijodiy uslubini hamda asarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligini aniqlashga harakat qiladi. Natijada u musiqiy hodisalarga nisbatan mustaqil va asoslangan estetik munosabatni shakllantiradi.

Mazkur vakolatning rivojlanishi talabalarga yuksak badiiy saviyadagi asarlarni ommaviy madaniyat mahsulotlaridan farqlash, musiqiy san'atning haqiqiy namunalarini tanlash va ularning estetik ahamiyatini asoslab bera olish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, talabalar turli davrlar va madaniy muhitlarda yaratilgan musiqiy asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini anglab, ularni tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda baholash ko'nikmalarini egallaydilar.

Estetik baholash vakolati talabaning estetik didini rivojlantirish bilan bir qatorda uning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ham boyitadi. Chunki musiqiy asarlarda aks etgan insonparvarlik, vatanparvarlik, ezgulik, go'zallik va milliy qadriyatlar kabi g'oyalar talabaning shaxsiy dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy asarlarni baholash jarayonida talaba nafaqat san'at asarining sifatini aniqlaydi, balki uning jamiyat va shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini ham anglaydi.

Musiqiy pedagogik ta'lim jarayonida estetik baholash vakolatini rivojlantirish uchun musiqiy munozaralar, refleksiv tahlil, qiyosiy tinglash, badiiy sharhlar hamda ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Ayniqsa, milliy va jahon musiqa madaniyati namunalarini o'zaro taqqoslash talabalarning estetik tafakkurini kengaytiradi va musiqiy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Kommunikativ vakolat

Kommunikativ vakolat musiqa tinglash kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, talabaning musiqiy asarlar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini aniq, mantiqiy hamda asosli tarzda ifoda etish, musiqiy-pedagogik muloqotda faol ishtirok etish va professional kommunikatsiya madaniyatini egallash qobiliyatini tavsiflaydi. Ushbu vakolat bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatida samarali muloqotni tashkil etish, o'quvchilar bilan hamkorlik qilish hamda musiqiy bilimlarni tushunarli tarzda yetkazib berish uchun zarur hisoblanadi.

Musiqa tinglash jarayonida kommunikativ vakolat talabaning tinglangan asar haqidagi taassurotlarini, estetik qarashlarini va tahliliy xulosalarini og'zaki hamda yozma shaklda bayon qila olishida namoyon bo'ladi. Talaba musiqiy asarning mazmuni, obrazlari, ifoda vositalari va badiiy xususiyatlari yuzasidan o'z nuqtai nazarini bildirish bilan birga, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglash, tahlil qilish va ularga nisbatan asosli munosabat bildirish ko'nikmasiga ham ega bo'ladi.

Mazkur vakolatning shakllanishi talabalarda musiqiy terminologiyadan to'g'ri foydalanish, kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirish va musiqiy tushunchalarni ilmiy asosda izohlash imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, musiqiy-pedagogik faoliyatda o'qituvchining nutqi o'quvchilarning musiqiy bilimlarni o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli, kommunikativ vakolatning rivojlanganligi kasbiy kompetentlikning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ vakolat musiqiy asarlar yuzasidan tashkil etiladigan suhbatlar, bahs-munozaralar, guruhli muhokamalar va taqdimotlar jarayonida yanada rivojlanadi. Bunday faoliyatlar talabalarning fikr almashish madaniyatini shakllantiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda turli nuqtai nazarlarga nisbatan hurmat va bag'rikenglik munosabatini qaror toptiradi. Shu bilan birga, talaba musiqiy asarlarni pedagogik jihatdan sharhlar va auditoriyaga taqdim etish malakalarini ham egallaydi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida kommunikativ vakolat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ham uzviy bog'liqdir. Talabalar turli raqamli platformalar, multimedia vositalari va onlayn muloqot muhiti orqali musiqiy materiallarni muhokama qilish, taqdim etish va kasbiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetentligini yanada boyitadi va zamonaviy pedagogik faoliyat talablariga moslashtiradi.

Shunday qilib, kommunikativ vakolat musiqa tinglash jarayonida talabanning musiqiy asarlar haqidagi fikrlarini erkin va asosli ifoda etishi, kasbiy muloqot madaniyatini egallashi, musiqiy-pedagogik muhokamalarda faol ishtirok etishi hamda samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu vakolat bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash va ta'lim jarayonida konstruktiv hamkorlik muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik vakolat

Pedagogik vakolat musiqa tinglash kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabanning musiqiy asarlarni ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadli va samarali qo'llash, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqiy faoliyatni tashkil etish hamda musiqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini ifodalaydi. Ushbu vakolat bo'lajak musiqa o'qituvchisining nazariy bilimlarini amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Musiqa tinglash jarayonida shakllanadigan pedagogik vakolat talabanning musiqiy asarlarning tarbiyaviy, estetik, ma'naviy va didaktik imkoniyatlarini aniqlay olishi hamda ulardan o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan vosita sifatida foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi har bir musiqiy asarning mazmuni, janri, uslubi va badiiy xususiyatlarini hisobga olib, uni muayyan pedagogik maqsadlarga mos ravishda tanlay olishi zarur.

Mazkur vakolatning muhim jihatlaridan biri dars mazmuniga mos repertuar tanlash hisoblanadi. Talaba musiqa tinglash faoliyati davomida milliy va jahon musiqa san'ati namunalari o'rganar ekan, ularning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishni ham o'rganadi. Natijada u o'quvchilarning yoshiga, musiqiy tayyorgarlik darajasiga va qiziqishlariga mos bo'lgan asarlarni tanlash, ularni darsning maqsad va vazifalariga muvofiq qo'llash kompetensiyasini egallaydi.

Pedagogik vakolat o'quvchilarda musiqiy idrok, estetik did va badiiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metod va usullarni tanlash hamda qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchi musiqa tinglashni suhbat, savol-javob, tahlil, taqqoslash va ijodiy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Shu tariqa musiqa tinglash jarayoni oddiy eshitish faoliyatidan tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik jarayonga aylanadi.

Pedagogik vakolatning shakllanishida refleksiv yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Talaba tinglangan musiqiy asarlarning ta'limiy samaradorligini baholash, o'quvchilarning musiqiy qabul qilish darajasini aniqlash va pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ta'lim jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Axborot-kommunikatsion vakolat

Axborot-kommunikatsion vakolat musiqa tinglash kompetensiyasining zamonaviy ta'lim talablari bilan bog'liq muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabanning axborot resurslaridan samarali foydalanish, musiqiy materiallarni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish bo'yicha bilim, ko'nikma hamda malakalar majmuasini ifodalaydi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida mazkur vakolat bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Musiqa tinglash jarayonida axborot-kommunikatsion vakolat talabanning turli elektron resurslar, raqamli kutubxonalar, musiqiy platformalar va multimedia vositalari orqali musiqiy asarlarni topish, tinglash va o'rganish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Talaba internet tarmoqlari,

audio arxivlar, notalar bazalari va maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanish orqali musiqiy materiallarni mustaqil ravishda izlash va ularning ilmiy hamda badiiy ahamiyatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur vakolatning muhim jihatlaridan biri axborotni tanqidiy tahlil qilish hisoblanadi. Talaba turli manbalardan olingan musiqiy ma'lumotlarning ishonchliligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini aniqlashni o'rganadi. Bu esa musiqiy ta'lim jarayonida sifatli va ishonchli axborotlardan foydalanish imkonini yaratadi hamda talabaning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsion vakolat musiqiy asarlarni multimedia vositalari yordamida tahlil qilish va taqdim etishni ham o'z ichiga oladi. Talabalar audio va video yozuvlar, interaktiv taqdimotlar, grafik va vizual materiallar yordamida musiqiy asarlarning mazmuni, shakli va ifoda vositalarini chuqurroq o'rganadilar. Bunday yondashuv musiqiy idrokning samaradorligini oshiradi va ta'lim jarayonining ko'rgazmaliligini ta'minlaydi.

Musiqa tinglash kompetensiyasini shakllantirish metodlari

Musiqiy pedagogik ta'limda musiqa tinglash kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

- faol tinglash metodi;
- musiqiy tahlil metodi;
- taqqoslash metodi;
- muammoli vaziyatlar yaratish;
- munozara va suhbat;
- loyiha faoliyati;
- multimedia texnologiyalaridan foydalanish.

Mazkur metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Musiqa tinglash kompetensiyasi musiqiy pedagogik ta'limning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu kompetensiya talabalarda musiqiy idrok, tahlil, estetik baholash, kommunikativ va pedagogik vakolatlarni shakllantiradi. Natijada ular musiqiy asarlarni chuqur anglaydigan, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalana oladigan va o'quvchilarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishga qodir mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc
2. Sayfitdinov R. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent, 2020.
3. Omonullayev D. «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (tezislar).» - T., 1990
4. Abdullin E.B., Nikolaeva E.V. Musiqiy ta'lim nazariyasi va metodikasi. Moskva, 2013.
5. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari uchun "Musiqa ta'limi" yo'nalishi davlat ta'lim standartlari.
7. Kabalevskiy D.B. Musiqa va bolalar. Moskva, 1985.